

Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romani: vaqt, voqelik va talabalarning taqdiri

Soliyeva Xusnida Hasanboy qizi

University of Business and Science universiteti o‘qituvchisi

Email: husnida201@gmail.com

Annotatsiya Ushbu maqolada Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romani zamon va voqelik tizimining o‘ziga xos, istalgan vaqtda buzilishi mumkin bo‘lgan ketma-ketliklari hamda bu holatlarning tabiiy qabul qilinishi masalasi yoritiladi. Asarda Germaniyaga o‘qishga ketgan o‘zbek talabalari taqdiri, ularning Vatan oldidagi mas’uliyati, “Ko‘mak” jurnali va teatr truppasi faoliyati orqali milliy ong va madaniy-ma’rifiy muhit tahlil qilinadi. Romandagi qahramonlarning maktublari va tergov jarayonlari orqali o‘sha davrning siyosiy-ijtimoiy holati tasvirlanadi. Asarda vaqt qatlamlari o‘zaro aralashib ketib, yozuvchining uslubiy mahorati bilan tarixiy haqiqatlar badiiy yoritiladi. Rovi obrazidagi tafakkur, tarixiy izlanish va milliy tanqid ruhiyati romanning markazida turadi. Maqola asar tilidagi badiiy to‘qimalar, obrazlarning ramziy-ma’nolari hamda yozuvchining xayoliy-ijtimoiy tafakkurining o‘ziga xosligi haqida fikr yuritadi.

Kalit so‘zlar

Javlon Jovliyev, “Qo‘rqma” romani, vaqt va voqelik, Germaniyaga ketgan talabalar, milliy ong, madaniy-ma’rifiy muhit, badiiy to‘qima, ramziy obrazlar, tarixiy haqiqat, Rovi, diskurs.

Аннотация

В данной статье рассматривается роман Джавлона Джовлиева «Не бойся» с точки зрения художественной интерпретации времени и реальности, которые в тексте представлены как подвижные и нарушаемые последовательности. Через судьбу узбекских студентов, обучающихся в Германии, автор поднимает темы национального самосознания и ответственности перед Родиной. Деятельность журнала «Ко‘мак» и театральной труппы отражает культурно-просветительскую атмосферу начала XX века. Письма героев и сцены допросов позволяют раскрыть политико-социальную обстановку того времени. Переплетение временных пластов и мастерство автора воссоздают историческую правду в художественной форме. Центральное место в романе занимает образ Ровия — повествователя, чье мышление связано с историческими изысканиями и национальной критикой. В статье анализируются художественные образы, символизм персонажей и особенности социально-философского мировоззрения автора.

Ключевые слова

Джавлон Джовлиев, роман «Не бойся», время и реальность, узбекские студенты в Германии, национальное самосознание, культурно-просветительская среда, художественная фикция, символические образы, историческая правда, Ровий, дискурс

Abstract

This article analyzes Javlon Jovliyev's novel *Do Not Be Afraid (Qo'rqma)* through the lens of time and reality as fluid and potentially disrupted sequences. The novel explores the fate of Uzbek students studying in Germany and examines themes of national consciousness and responsibility to the homeland. The activities of the *Ko'mak* magazine and theater troupe illustrate the cultural and educational environment of the early 20th century. Through the protagonists' letters and interrogation scenes, the socio-political context of the era is depicted. Interwoven layers of time, combined with the author's stylistic mastery, transform historical facts into a compelling literary narrative. At the heart of the novel stands the narrator (Roviy), whose reflections embody historical inquiry and national critique. The article further explores the novel's artistic fabric, symbolic characters, and the unique socio-imaginative perspective of the author.

Keywords

Javlon Jovliyev, *Do Not Be Afraid* novel, time and reality, Uzbek students in Germany, national consciousness, cultural and educational environment, literary fiction, symbolic characters, historical truth, Roviy, discourse

Kirish Javlon Jovliyevning "Qo'rqma" romani XX asr boshlarida Germaniyaga o'qishga ketgan o'zbek talabalari hayoti, ularning siyosiy va madaniy faoliyati hamda milliy ongning shakllanishi jarayonlarini badiiy qalam orqali jonlantiradi. Roman o'ziga xos uslubda vaqt va voqelik tizimining ketma-ketliklari chegaralarining buzilishi, tarix va hozirgi voqealar orasidagi bog'liqlikni ta'kidlaydi. Ushbu maqolada romandagi asosiy qahramonlar, voqealar zanjiri va badiiy ifodalar orqali jamiyat hayotining murakkabligi tahlil qilinadi. Asardagi vaqt va voqelik tizim "Qo'rqma" da vaqt chiziqlari qat'iy ajratilmagan, ular istalgan paytda buzilib, bir-biriga aralashadi. Bu hol yozuvchining o'ziga xos badiiy uslubini tashkil etib, o'quvchini voqealarning murakkab va ko'p qatlamli tabiati bilan yuzmayuz qo'yadi. Masalan, Go'ri Amir maqbarasiga borish sahnasi, Germaniyaga ketgan talabalar qismati va ularning maktublari, tergov jarayonlari o'rtasida o'zaro bog'lanish mavjud. Ushbu yondashuv orqali tarixiy voqealar shaxsiy, ijtimoiy va siyosiy jarayonlar bilan uyg'unlashadi. Germaniyaga ketgan talabalar va milliy faoliyati tasvirlagan .Roman qahramonlari — Sattor Jabbor, Maryam

Sultonmurodova, Ahmad Shukriy, Abdurahob Murodiy va boshqalar Germaniyada nafaqat ilm o‘rganibgina qolmay, balki “Ko‘mak” jurnali va teatr truppasini tashkil etib, o‘zbek milliy madaniyatini rivojlantirishga xizmat qiladilar. Ularning maktublari, tergov jarayonlari orqali o‘sha davr siyosiy bosimlari va milliy mustaqillik uchun kurash ruhiyati badiiy ravishda yoritiladi. Asardagi ramziy obrazlar va badiiy to‘qimalarni uchratdik. Roviyy — so‘zamol yigit romanning markaziy obrazidir. U tarixchi, talaba va milliy tanqidchi sifatida o‘z davrining jamiyatini keskin tahlil qiladi. Roviyyning oilasi, u bilan bog‘liq boshqa obrazlar — qiztaka, Ulug‘ kursdosh, Lola va boshqalar badiiy to‘qima orqali asarning umumiy ma‘nosini oshiradi. Yozuvchi ularni ataylab umumlashtirgan va ba‘zan ism berishdan tiyilgan, bu esa ijtimoiy tabaqalashtirish va tarixiy haqiqatning murakkabligini ifodalaydi. Ziddiyatlar va o‘quvchiga yuklangan mas‘uliyatni to‘g‘ri tasvirlash va tushunish kerak bo‘ladi.

Roman ko‘plab qarama-qarshiliklar asosida qurilgan: tush va xush, muhabbat va nafrat, tarix va hozirgi vaqt, sodiqlik va xiyonat kabi. Roviyyning Lola bilan munosabatlari, talabalar orasidagi ijtimoiy va ma‘naviy ziddiyatlar o‘quvchiga o‘ylash va o‘z xulosasini chiqarish mas‘uliyatini yuklaydi. Bu holat asarning eng qiziqarli va ta‘sirli jihatlaridan biri hisoblanadi.

Javlon Jovliyevning “Qo‘rqma” romani zamon va voqelik qatlamlarini o‘zaro uyg‘unlashtirib, o‘quvchiga o‘tmish va hozirgi davr o‘rtasidagi murakkab aloqalarni his qilish imkonini beradi. Germaniyaga ketgan talabalar hayoti va faoliyati orqali milliy ong va madaniy-ma‘rifiy jarayonlar badiiy tarzda yoritiladi. Asardagi ramziy obrazlar va badiiy to‘qimalar muallifning o‘ziga xos uslubini namoyon qilib, o‘quvchini tarixiy voqealar va shaxsiy tafakkurga chuqurroq kirib borishga chorlaydi. “Qo‘rqma” nafaqat o‘zbek adabiyotida, balki milliy madaniyat va tarixni o‘rganishda ham muhim ahamiyatga ega sanaladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Jovliyev, J. (2020). *Qo‘rqma* (roman). Toshkent: G‘afur G‘ulom nomidagi Adabiyot va san‘at nashriyoti.
2. Karimov, B. (2021). Lirotragik roman – Qo‘rqma. *Adabiyotshunoslik jurnali*, 2(1), 70-75.
3. Abdullayev, R. (2019). O‘zbek romani va milliy identitet. Toshkent: Fan nashriyoti.
4. Nazarov, D. (2018). Tarix va badiiy haqiqat. *Madaniyat va Til*, 5(3), 112-118.
5. Murodov, A. (2020). Germaniyaga ketgan o‘zbek talabalari va madaniy-ma‘rifiy jarayonlar. Toshkent: O‘zMU nashriyoti.